

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RТА MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

O'quv-uslubiy boshqarma
tomonidan ro'yxatga olingan
№ 212153
2021 yil "___"

Instituti kengashining
№ ___-sonli qarori bilan
TASDIQLANGAN
2021 yil "___"



AUDITNING XALQARO STANDARTLARI

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 200000 - Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq.

Ta'lim sohasi: 230000 - Iqtisod.

Ta'lim yo'nalishlari: 5230900 – Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)
5232400 – Iqtisodiy xavfsizlik;

Toshkent – 2021

Fan dasturi Toshkent moliya institutii Kengashining 2020 yil
“___” dagi “___” - son bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Ushbu “Auditning xalqaro standartlar” tanlov fan dasturi Toshkent moliya instituti “Audit” kafedrasini tomonidan ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: Qo'ziyev I.K. – TMI, “Audit” kafedrasini mudiri i.f.d., professor
Hamdamov B.K. – TMI, “Audit” kafedrasini i.f.d., professor
Avazov I.R. – TMI, “Audit” kafedrasini dotsenti, PhD

Taqrizchilar: Xadjimuratov N. – TDIU, «Iqtisodiy tahlil va audit» kafedrasini mudiri, DSc;
Masharipov O.A. – TMI, “Audit” kafedrasini dotsenti, i.f.n.

Fan dasturi Toshkent moliya institutining O'quv-uslibiy Kengashida ko'rib
chiqishga tavsiya qilingan (2021 yil “___” avgustdagi ___ – sonli bayonnomasi).



i.f.d., prof. A.J.Tuychiyev

KIRISH

Pandemiya sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirish auditorlik tekshiruvlarini xalqaro standartlar asosida tashkil qilish va ular sifatini oshirish, ular tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash negizida amalga oshirish, tekshirishning uzlusizligini ta'minlash imkonini oshiradi.

Auditning xalqaro standartlari fanini o'rganish turli mulkchilik shakllaridagi korxonalarни boshqarishda tutgan o'rnini tushunish va nazariy bilimlarni amaliy bilimlar bilan boyitishni vazifa qilib qo'yadi. Auditning xalqaro standartlari mustaqil auditor tomonidan o'tkaziladigan moliyaviy hisobotlarning auditi kontekstida yozilgan. Ushbu standartlar boshqa tarixiy moliyaviy ma'lumotlarning auditiga nisbatan qo'llanilganida, mavjud sharoitlardagi zaruriyatdan kelib chiqqan holda moslashtirilishi bo'yicha xulosa va takliflar berishda etarli darajada bilimlarni beradi.

I. O'quv fanining dolzarbliji va oliy kasbiy ta'limdag'i o'rni

«Auditning xalqaro standartlari» nomli mazkur dastur oliy ta'limning iqtisodiyot yo'nalishidagi bakalavriat talabalari va magistrantlar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda auditning xalqaro standartlari izlanish predmeti sifatida ko'rib chiqiladi. Dacturda O'zbekiston Respublikasining nazorat tizimi tahlil qilinib unda tashqi audit, taftish va ichki audit tizimlari qiyosiy jixatdan berilgan. Dasturni taylorlashda Xalqaro Audit va ishonch bildirish Standartlari Kengashining (XAIBSK) sifat nazorati, audit, ko'rib chiqish, boshqa ishonch bildirish va turdosh xizmatlar bo'yicha standartlari, atamalar glossariysi va xalqaro standartlarga muqaddiman, hamda to'la vakolatlari bo'limgan Xalqaro audit amaliyoti izohlaridan keng foydalanildi (XAAI). Xalqaro audit standartlarini O'zbekiston Respublikasida joriy qilish masalalari atroflicha qamrab olingan.

Mazkur fan globallashuv davrida auditorlik faoliyatini tashkil qilish, rivojlangan mamlakatlarda auditorlik faoliyatini hozirgi holati, audit sohasida transmilliy kompaniyalar faoliyatini tashkil qilish masalalarini o'rganadi. Mamlakatimizda qulay investitsiya muhitini yaratish, moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi va shaffofligini ta'minlashda xalqaro audit standartlarini qo'llash bo'yicha talabalarni zarus bo'lgan bilimlar bilan quollantiradi.

Auditning zaruriyati hisobot kontsepsiysi talablarining bajarilishi vaziyatidan kelib chiqadi. Bu bir tomon ikkinchi bir tomoniga hisobot berish va majburiyat bajarilishni nazorat qilishni e'tirof etadi va bu nazorat qandaydir ma'lumot, tushuntirish yoki hisobot olishni nazarda tutadi. Hisobot berish quyi bo'g'in boshqaruvchilar yuqori bo'g'in boshqaruvchilarning aktsiyadorlarga hisobot berishi kerakligidan kelib chiqadi. Shuning uchun audit nazoratning mehanizmi sifatida yuzaga keladi va hisobot berishning bajarilishiga yordam beradi.

O'tgan yillarda mamlakatimizda auditning normativ-huquqiy va uslubiy bazasi shakllantirildi, shuningdek, auditorlik faoliyatini litsenziyalashning soddalashtirilgan va muddatsiz tizimi joriy etildi, bu auditorlik xizmatlari bozorining shakllanishiga va mahalliy auditorlik tashkilotlari auditorlik kompaniyalarining yirik xalqaro tarmoqlariga kirishini ta'minlashga imkon yaratdi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga xalqaro audit standartlarini tarkibi va modellari, xalqaro auditorlik faoliyatining rivojlanish tendentsiyalari va jahon qatormamlakatlardagi ilg'or tajribalarini xususida o'rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalalar, auditorlik faoliyatini tashkil qilishda uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi.

Talaba:

- audit xalqaro standartlari tarkibini ;
- xalqaro buxgalterlar federatsiyasi (XBF) rivojlanish tarixi;
- rivojlangan mamlakatlarda auditorlik faoliyati *haqida tasavvurga ega bo'lishi;*
 - auditning xalqaro standartlari asosida auditorlik tekshiruvini o'tkazishni tashkil qilishni;
 - auditning xalqaro standartlari asosida auditorlik tekshiruvida tahliliy amallarni qo'llay olishni;
 - auditning xalqaro standartlari asosida auditorlik xulosasi va hisobotini rasmiylashtirishni *bilishi va ulardan foydalana olishi;*
 - auditning xalqaro standartlari asosida muhimlik va risk darajalarini aniqlash;
 - auditning xalqaro standartlari asosida ichki nazorat tizimini o'rganish va baholash;
 - audit ishi sifatini baholash *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*
 - auditorlik kompaniyalar faoliyatini tahlil qilish;
 - auditorlik kompaniyalar reytingini baholay olish;
 - xorijiy auditorlik kompaniyalar ish tajribalaridan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlarini belgilash *malakalariga ega bo'lishi kerak.*

III. Fanni o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalari hamda o'quv mashg'ulotlarini loyihalash

Fanni o'qitishda interfaol, kommunikativ, pertseptiv yondashuvlardan maksimal darajada foydalanish, o'quv adabiyotlaridan tashqari autentik materiallar: audio, video, jurnallar, internet manbalaridan o'zlashtirilgan bilimlar majmuasini amaliyotda kuzatilayotgan dalil va hodisalarga bog'lay olish, olingan natijalarini baholash, tahlil qilish orqali kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va kompetentsiyalarni innovatsion tafakkur layoqati negizida shakllantirishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o'quv mashg'ulotlarini loyihalash jarayonida:

- mezonni tanlash;
- o'quv maqsadlarini toifalash;
- o'quv materiallarini modullashtirish;
- ularni o'rganish, tahlil qilish va qayta ishslash;
- o'rganish natijalarini aniqlash kabi omillarga qaratish orqali ta'lim oluvchida nazariy bilimlar puxta egallanishi hamda ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish, mustaqil ta'limi samarali tashkil etish talab etiladi.

IV. ASOSIY NAZARIY QISM

1. Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

1-mavzu. Xalqaro audit standartlarining ahamiyati va vazifalari

Iqtisodiy munosabatlар tizimida auditning xalqaro standartlari o'mi va ahamiyati. Auditning xalqaro standartlarini sinflashtirish va O'zbekiston Respublikasida qo'llash masalalari. Moliyaviy hisobot va auditning xalqaro standartlari o'zaro aloqadorligi va bog'liqligi. Auditning umumiy talablari va audit uchun xizmat ko'rsatish. Xalqaro amaliyotda auditor etikasi.

2-mavzu. Xalqaro audit standartlari asosida auditni tashkil qilish

Auditning xalqaro standartlarini maqsadi va umumiyl tamoyillari. Audit o'tkazish shartnomalarini tuzish. Auditni rejalashtirishning umumiy talablari. Biznes shartlarini o'rganish. Muhimlik darajasini belgilash. Ichki nazorat tizimi va tavakkalchilikni baholash. Auditorlik tekshiruvini xujjatlashtirish.

3-mavzu. Auditorlik dalillarini yig'ish

Auditorlik dalillarining ko'rinishlari va yig'ish usullari. Auditda tahliliy usullarni qo'llash yo'llari. Auditda tanlash va tanlov o'tkazish usullari. Mantiqiy tanlov. Audit o'tkazish jarayonida boshqa shaxslarning malumotlaridan foydalanish. Tekshiriluvchi sub'ekt rahbariyatining bildirishnoma va arizalari.

4-mavzu. Audit o'tkazish jarayonida ma'lumotlarni yig'ish va umumlashtirish bo'yicha auditning xalqaro standartlari

Audit o'tkazuvchi shaxs tomonidan qonun va me'yoriy hujjatlarga amal qilinishini aniqlash. Xato va firibgarliklar mavjud holat va jarayonlarni tahlil qilish. Moliyaviy hisobot sanasidan so'ng ro'y berishi mumkin bo'lgan holatlarni baholash. Audit o'tkazuvchi shaxs faoliyati uzlusizligini baholash. Audit ish sifati nazoratini o'tkazish usullari.

5-mavzu. Auditorlik xulosa va takliflarining xalqaro standartlari

Moliyaviy hisobot bo'yicha auditorlik xulosalari. Tekshiruvdan o'tkazilayotgan moliyaviy hisobot tarkibi bo'yicha taqqoslash o'tkazish usullari. Moliyaviy hisobot tarkibiga kiruvchi ilova va tushuntirishlar, ularni baholash tartibi.

6-mavzu. Auditning maxsus jahhalari va unga xizmat ko'rsatish

Auditning maxsus jahhalari. Maxsus audit topshiriqlari yuzasidan auditorlik hisobotlari. Istiqbol uchun tayyorlangan moliyaviy ma'lumotni tekshirish. Auditning xalqaro standartlari asosida auditga xizmat ko'rsatish. Moliyaviy hisobot ko'lamini aniqlash. Kelishilgan usullarni qo'llash. Moliyaviy ma'lumot tayyorlash.

7-mavzu. Xalqaro audit amaliyoti yuzasidan yo'rqnoma

Audit o'tkazish jarayonida kompyuterli ma'lumotlar tizimini tushuntiruvchi yo'rqnomalar. Kompyuterli ma'lumotlar tizimi muhitida audit o'tkazish xususiyatlari. Auditda kompyuter dasturlarini qo'llash. Auditorning banklar bilan aloqasini tartibga soluvchi yo'rqnomalar. Tashqi auditorlar va bank inspektorlari aloqalari. Xalqaro tijorat banklari audit. Kichik korxonalar auditining xususiyatlari. Xalqaro auditorlik nazorati amaliyoti yo'rqnomasidagi boshqa savollar.

2. Fanning amaliy mashg'ulotlari mazmuni

Amaliy mashg'ulotlarini o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- amaliy mashg'ulotlarining maqsadini aniq belgilab olish;
- o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash;
- amaliy mashg'ulotlar nafaqat aniq mavzu bo'yicha bilimlarni yakunlash, balki talabalarni tarbiyalash manbai hamdir.

Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Xalqaro audit standartlarining ahamiyati va vazifalari
 2. Xalqaro audit standartlari asosida auditni tashkil qilish
 3. Auditorlik dalillarini yig'ish
 4. Audit o'tkazish jarayonida malumotlarni yig'ish va umumlashtirish bo'yicha xalqaro audit standartlari
 5. Auditlik hulosa va takliflarining xalqaro standartlari
 6. Auditning mahsus jahbalarini va unga xizmat ko'rsatish
 7. Xalqaro audit amaliyoti yuzasidan yo'riqnomalarini yig'ish
- Amaliy mashg'ulot mavzularida fanning ishchi o'quv dasturini ishlab chiqishda qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.*

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademguruuhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

VI. MUSTAQIL TA'LIM

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Iqtisodiy munosabatlardan tizimida auditning xalqaro standartlari o'rni va ahamiyati.
2. Auditning xalqaro standartlarini sinflashtirish va O'zbekiston Respublikasida qo'llash masalalari.
3. Moliyaviy hisobot va auditning xalqaro standartlari o'zaro aloqadorligi va bog'liqligi.
4. Auditning umumiyligi talablari va audit uchun xizmat ko'rsatish.
5. Xalqaro amaliyotda auditor etikasi.
6. Auditning xalqaro standartlarini maqsadi va umumiyligi tamoyillari.
7. Audit o'tkazish shartnomalarini tuzish.
8. Auditni rejalashtirishning umumiyligi talablari.
9. Biznes shartlarini o'rganish.
10. Muhimlik darajasini belgilash.
11. Ichki nazorat tizimi va tavakkalchilikni baholash.
12. Auditorlik tekshiruvini xujjatlashtirish.
13. Auditorlik dalillarining ko'rinishlari va yig'ish usullari.
14. Auditda tahliliy usullarni qo'llash yo'llari.
15. Auditda tanlash va tanlov o'tkazish usullari.
16. Mantiqiy tanlov.
17. Audit o'tkazish jarayonida boshqa shaxslarning malumotlaridan foydalananish.
18. Tekshiriluvchi sub'ekt rahbariyatining bildirishnomasi va arizalari.
19. Audit o'tkazuvchi shaxs tomonidan qonun va me'yoriy hujjalarga amal qilinishini aniqlash.
20. Xato va firibgarliklar mavjud holat va jarayonlarni tahlil qilish.
21. Moliyaviy hisobot sanasidan so'ng ro'y berishi mumkin bo'lgan holatlarni baholash.

22. Audit o'tkazuvchi shaxs faoliyati uzlusizligini baholash.
 23. Audit ish sifati nazoratini o'tkazish usullari.
 24. Moliyaviy hisobot bo'yicha auditorlik xulosalari.
 25. Tekshiruvdan o'tkazilayotgan moliyaviy hisobot tarkibi bo'yicha taqqoslash o'tkazish usullari.
 26. Moliyaviy hisobot tarkibiga kiruvchi ilova va tushuntirishlar, ularni baholash tartibi.
 27. Auditning maxsus jabhalari.
 28. Maxsus audit topshiriqlari yuzasidan auditorlik hisobotlari.
 29. Istiqbol uchun tayyorlangan moliyaviy ma'lumotni tekshirish.
 30. Auditning xalqaro standartlari asosida auditga xizmat ko'rsatish.
 31. Moliyaviy hisobot ko'lamini aniqlash.
 32. Kelishilgan usullarni qo'llash. Moliyaviy ma'lumot tayyorlash.
 33. Audit o'tkazish jarayonida kompyuterli ma'lumotlar tizimini tushuntiruvchi yo'riqnomalar.
 34. Kompyuterli ma'lumotlar tizimi muhitida audit o'tkazish xususiyatlari.
 35. Auditda kompyuter dasturlarini qo'llash.
 36. Auditorning banklar bilan aloqasini tartibga soluvchi yo'riqnomalar.
 37. Tashqi auditorlar va bank inspektorlari aloqalar.
 38. Xalqaro tijorat banklari audit. Kichik korxonalar auditining xususiyatlari.
 39. Xalqaro auditorlik nazorati amaliyoti yo'riqnomasidagi boshqa savollar.
- Fanning ishchi o'quv dasturini ishlab chiqishda mustaqil ta'lim va mustaqil ish mavzularida qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.*
- Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

VII. FAN BO'YICHA KURS ISHI (LOYIHASI)

"Xalqaro audit standartlari" fanidan kurs ishi rejalashtirilmagan.

VIII. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar:

1. Tuychiyev A., Qo'ziyev I., Avloqulov A., Sherimbetov I., Avazov I. Audit. Darslik. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. – 530 b.
2. Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. Xalqaro audit. Darslik. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2015. -348 b.
3. Xamdamov B. Auditning xalqaro standartlari. Darslik. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2020. -245 b.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2018 yil 19 sentyabrdagi PQ-3946 Qarori.
2. Xalqaro audit va ishonch bildirish standartlari Kengashining (XAIBSK) sifat nazorati, audit, ko'rib chiqish, boshqa ishonch bildirish va turdosh xizmatlar bo'yicha standartlari.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.
5. Tuychiyev A., Qo'ziyev I., Avloqulov A., Masharipov O., Avazov I. Audit. Elektron darslik. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020. – 830 b.

Internet saytlari:

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. www.mf.uz – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.
4. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasining rasmiy sayti.